



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Hotamov Mumin Axmadovich¹, Mardiyeva Marjona Qaxramon qiz²

¹*Samarqand davlat universiteti, Sport faoliyati va san'at fakulteti,*

Sport faoliyati kafedrasи o'qituvchisi:

¹*Sport faoliyati va san'at fakulteti talabasi*

**GANDBOLCHILARNI HUJUM TEXNIKASIGA O'RGATISH
YO'LLARI**

Annotasiya.

Yoshli gandbolchilarning hujum harakatlari samaradorligini o'rganish, hamda tahlil qilish orqali ularni o'yin jarayonlaridagi hujum samaradorligini aniqlash va amaliy tavsiyalar berishni maqsad qilib oldik.

Kalit so'zlar: konseptual, hujum, himoya, kombinasiya, samarador, ampula, individual, trayektoriya, texnik, taktik.

Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtaida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitasiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyatga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va murabbiylar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud. Sohani malakali kadrlar bilan mustahkamlash hamda zamonaviy sport musobaqalarida munosib ishtirok etish uchun bugun yoshlarga munosib e'tibor qaratmoq lozim.



Gandbol o'yinida ko'p martalab hujumdan himoyaga himoyadan hujumga o'tishdan iborat bo'lgani uchun ham tabiiyki, xar bir jamoaning hujum va himoya harakatlari uyushgan bo'lishi lozim. Hujum o'yinni hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi. Hujumning mutloq yagona maqsadi bu raqibning himoyadagi harakatlari tartibini buzish va darvozaga to'p otishda shaxsiy qarshilikni yengishdir. Xozirgi kunda gandbol o'yini hujumning tez-tez va qisqa vaqt davomida uyushtirilishi bilan tavsiflanadi.

Zamaonaviy gandbol o'yinida, himoyadan hujumga o'tish tezligi, taktik "kombinasiya"larni bajarish tezkorligi va aniqligi oshib bormoqda. Buning natijasida texnik usullarni bajarilish vaqt qisqorganini guvohi bo'lmoqdamiz.

13-16 yoshli gandbolchilarining hujum harakatlari samaradorligini o'rganish, hamda tahlil qilish orqali ularni o'yin jarayonlaridagi hujum samaradorligini aniqlash va amaliy tavsiyalar berishni maqsad qilib oldik.

Biz oldimizga ko'ygan maqsadni muofaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni belgildik.

- ❖ Musobaqalarga tayyorgarlik davrida yosh gandbolchilarining mashg'ulot jarayonini o'rganib chiqish.
- ❖ Yosh gandbolchilarining musobaqa faoliyatidagi hujumlarning samaradorligini aniqlash hamda olingan natijalarni taxlil qilish.
- ❖ Mashg'ulot va musobaqa faoliyatini taxlil qilish asosida gandbolchilarining hujum samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning tashkiliy va uslubiy yechimi. Samarqand Ixtososlashtirilgan Olimpiya zahiralari sport məktəbida olib bordik. Ushbu tadqiqotimizda boshlang'ich ixtisoslik bosqichida shug'ullanuvchi 13-16 yoshli 10 nafar shug'ullanuvchilarni tanlab olindi va tadqiqot ishlar olib borildi.

Tadqiqot 2 bosqichidan iborat. 2022 yilning fevral va mart oyi davomida olib borildi, muommoning nazariy tomonlari taxlil qilindi hamda ilmiy nazariy izlanishlar natijasida muommoning xozirgi holati aniqlandi va zarur bo'lgan tomonlari ustida ishslash kerakligi aniqlandi.

- Belgilangan muddatda pedagogik tajribalarning maqsadi, 13-16 yoshli gandbolchilarining hujum harakatlarini samaradorligini o'rganish va shu maqsad yo'lida tajriba olib borildi.
- Tadqiqotning yakuniy natijalari olindi ta'lil qilindi. Bu bosqichda tadqiqot natijalari umumlashtirildi va amaliy tavsiyalar berildi.

1-jadval.

13-16 yoshli gandbolchilarining texnik tayyorgarlik darajasini maxsus testlar asosida baxolash. (tadqiqotdan oldin)

No	F.I.Sh	30 m masofaga gandbol to'pini yerga urib olib yugurish,s	30 m masofaga to'pni ustunlararo olib yurish, s	Darvoza burchaklaridagi nishonga to'p otish (12 marta)
1	Tolipov Zarif	4,8	7,2	5
2	O'razaliyev Alisher	4,8	7,5	7
3	Zayniyev Nodirjon	4,9	8,0	6
4	Salimjonov Samadjon	4,9	7,9	8



5	Sheraliyev Bunyod	4,8	8,2	6
6	Karimov Suxrobjon	5,0	7,9	6
7	Lutfullayev Farhod	5,2	8,2	7
8	Alamjonov Yorqin	5,0	8,3	8
9	Daminov Ilhomjon	4,8	7,5	7
10	Choriyev Hoshimjon	4,9	8,1	6
	X	4,9	7,8	6,6

Quyidagi jadvalga etibor qiladigan bo'lsak, test topshirgan 10 nafar 13-16 yoshli gandbolchilaridan 3-yo'nalishdagi ko'rsatgan natijalari biz rejalashtirgan ko'rsatgichlarni bermadi. Shu sababli ushbu guruhga biz tavsija bergen mashqlardan foydalanishni tavsija qildik. Ma'lum bir o'yin jarayonini ampulasi tavsifi bilan usullar takomillashtiriladi. Oldindan o'rganilgan o'yin usullari jamoadagi o'yinlar ampulasi, jismoniy tayyorgarligi va malumotlarni individual o'zlashtirish usulini takomillashtiradi.

Mashg'ulot jarayonida, ikkinichi qator hujumchilarning harakatlanishi. Ya'ni yugurish: qisqa masofaga sakrab, chalishtirma qadamlar bilan, o'ng va chap yon bilan qadamma-qadam, oddiy qadam, keng va qisqa qadam, oldinga qarab, yon bilan, orqa bilan oldinga bir va ikki oyoqda to'xtash, bir va ikki oyoqda yuqoriga va uzunlikka sakrash hamda to'pni egallab yurish kabi usullarni takomillashtirishdan iborat. Joyidan turib harakatlanganda, harakatda va sakrab gavdani burmasdan ikki qo'llab to'pni ilish, bir qo'llab to'pni ilish, bir qo'llab to'pni uzatish, kaft bilan joyida, harakatda, yugurib, 1-2-3 qadam qadamdan so'ng sakrab yuqori tezlikda kelgan to'pni to'xtatib, yerdan sapchib kelgan, himoyachi yaqinida har yo'nalishdagi to'plarni ilish, harakatdagi sheringiga uzun va qisqa masofaga to'p uzatish, to'pga qaramasdan to'pni yerga urib olib yurish va maksimal tezlikda ta'qib qilib kelayotgan raqibdan qutilish maqsadida harakat qilishni takomillashtirish. To'pni bir qo'llab, yuqoridan, yuqoridan, yondan, chap va o'ng tomongpa gavdani burib, tayanib, sakrab xar xil harakatda uzoq va yaqin masofadan, xar hil yonalishlarda to'p uzatish.

Mashg'ulot jarayonida, birinchi qator va yon burchak hujumchilarni harakatlanishi quyidagicha ya'ni. Qisqa yo'lakli masofaga keng va mayda qadamlarda tezlanish, harakat yo'nalishini o'zgartirib harakat qilish va o'ng va chap oyoqda depsinib tomonlarga sakrash kabi usullarni takomillashtirish. Bir ikki qo'llab oldindan yon tomondan yuqori tezlikda harakat qilib himoyachilar yaqinida to'pni ilish, yuqori tezlikda yo'nalishlarni o'zgartirib, xar hil tomonlarga burilib to'pni yerga urib olib yurish va birinchi qator hujumchisi darvoza maydoni chizig'i bo'y lab o'yinchilar uchun. Bir va ikki oyoqni to'g'ri qo'yib sakrash, joyida va harakatda qo'lga, yonboshga va gavdaga yiqilishni o'rganish, to'pni egallab yurish, joyida oyoqlarni siljimasdan bir va ikki qo'llab to'pga bir marta tegib to'p uzatish, bir va ikki oyoqda depsinib yuqoridan yondan to'pni ilish va uzatish, yiqilib to'p otish, oyoqlar orasidan ikki qo'llab orqaga to'p otish, tayangan holatda bir qo'llab joyidan, yondan sapchitib to'p otish. Joyidan yugurib kelib sakrab va yuqoridan hamda yondan bir qo'llab to'p otish, darvoza maydoni chizig'iga oyoq tovonlarini to'g'ri qo'yib yurish va yugurish kabi usullardan foydalanish haqida tavsiyalar berildi.

Samarqand Ixtososlashtirilgan Olimpiya zahiralari sport maktabining 13-16 yoshli gandbolchilarning mashg'ulot jarayonini to'rt oy davomida o'rgandik, ushbu



guruhda shug'ullanuvchi yosh gandbolchilarining o'quv-mashg'ulot dasturiga kiritilgan mashqlar samarasini aniqlash uchun yana testlar qabul qildik.

2-jadval.

13-16 yoshli gandbolchilarining texnik tayyorgarlik darajasini maxsus testlar asosida baxolash. (tadqiqotdan keyin)

Nº	F.I.Sh	30 m masofaga gandbol to'pini yerga urib olib yugurish,s	30 m masofaga to'pni ustunlararo olib yurish, s	Darvoza burchaklarid agi nishonga to'p otish (12 marta)
1	Tolipov Zarif	4,7	7,0	7
2	O'razaliyev Alisher	4,7	7,1	9
3	Zayniyev Nodirjon	4,8	7,5	7
4	Salimjonov Samadjon	4,7	7,8	9
5	Sheraliyev Bunyod	4,7	7,5	8
6	Karimov Suxrobbjon	4,9	7,7	7
7	Lutfullayev Farhod	4,5	7,0	9
8	Alamjonov Yorqin	4,9	7,1	10
9	Daminov Ilhomjon	4,7	7,4	9
10	Choriyev Hoshimjon	4,6	7,9	8
	X	4,7	7,4	8,3

Gandbolchilar mashg'ulot jarayonida turli hil texnik usullarni puxta o'zlashtrib olish avvalo ko'p jixatdan shaxsiy tayyorgarlikka ham bog'liq bo'ladi. Jumladan, hujumchilar guruhi harakatining uyushqoqligidagi ahillagini oshirish, gandbolchilarining o'yin jarayonidagi turli hil holatlarni bartaraf qilishda birdamligini oshirish lozim.

Olingen natijalarni o'rganish jarayonida quyidagi hulosaga to'xtakdik, asosiy ma'lumotlarni taxlil qilish asosida texnik-taktik harakatlarning musobaqa faoliyatida yosh gandbolchilarini o'yin jarayonida amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalarini hisobga olib ularni ajratib borish imkoniy yaratildi. Bundan tashqari chiziq o'yinchilar boshqalarga qaraganda ko'proq va tezroq individual texnik-taktik harakatlarni bajarishini guvohi bo'ldik, qulay holat tanlash maqsadida himoyachilar tarkibidan qutilish, to'pni egallash va darvozaga otish uchun qulaylik yaratish masofa va vaqt tanqisligida darvozabon bilan yakkama-yakka holatda darvozaga to'p otishlarda mashg'ulotda ko'proq e'tibor qaratish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X., Yusupova Z.Ye. Gandbol nazariyasi va uslubiyati: Darslik.-T."Fan va texnologiya", 2017 y
2. Abdurahmonov F.A., Pavlov Sh.K. Gandbol. Jismoniy tarbiya institutlari uchun namunaviy dastur. – T.: O'zDJTI, 2005.
3. Gancharova O.V. "Yosh sportchilarining jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish" O'zDJTI nashriyoti-manba bo'limi 2005 y.
4. Pavlov Sh.K, Akramov J, Abduraxmonov F "Gandbol" Darslik Leder Press nashriyoti 2005 y.